

KO'KYO'TAL KASALLIGI ASORATLARINI ANIQLASH VA DAVOLASH

Sultonov Ravshan Komiljonovich,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Tibbiyot kafedrasida katta o'qituvchisi PhD

Email-ravshansultonov605@gmail.com

Odiljonov Ozodbek Odiljonovich

Tibbiyot fakulteti Davolash ishi 23-16 guruh talabasi

Email: odiljonnorkulov0@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ko'kyo'tal kasalligining tarqalishini oldini olish chora-tadbirlari o'rganiladi. Tadqiqotda kasallikning epidemiologik xususiyatlari, tarqalish omillari va diagnostika usullari tahlil qilingan. Kasallikka qarshi samarali profilaktika choralari amalga oshirish, jumladan emlash dasturlari, sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish va aholining xabardorligini oshirish kabi yo'nalishlarga e'tibor qaratilgan. Maqolada ko'kyo'tal kasalligining oldini olish strategiyalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Ko'kyo'tal, epidemiologiya, profilaktika, vaksinalar, immunizatsiya, diagnostika, sanitar-gigiyena, kasallik tarqalishi, emlash dasturi.

Kirish qismi. Ko'kyo'tal yuqori nafas yo'llarining yuqumli kasalligi bo'lib, spazmatik yo'tal xurujlari bilan ta'riflanadi. Ko'kyo'tal maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda hammadan ko'ra ko'proq uchraydi. Ayniqsa 2 yoshdagi bolalarda og'ir kechadi. Qo'zg'atuvchisi – Bordetella pertussis aerob, kapsulali, grammanfiy tayoqcha bakteriyadir. Bakteriyalar ko'p miqdorda toksinlar ajratib chiqaradi va nafas yo'llarining shilliq qavatini zararlaydi.

Asosiy qism. Kasallik nafas yo'llarining shilliq qavatida ko'payadi 40 % hollarda kasallik o'tkir bronhit tarzida kechishi mumkin. Ko'kyo'tal yuqori nafas yo'llariga yallig'lanishga sabab bo'luvchi Bordetella pertussis bakteriyasining tushishi natijasida yuzaga keladi. Kasallik havotomchi yo'li bilan yuqadi, zararlanish ehtimoli 90% ni tashkil qiladi. Inkubatsion davri 7-14 kun, bemor 5 kunlik antibiotik terapiyadan so'ng izolyatsiya qilinishi kerak. Kasallik asosan 3 stadiyada kechadi: kataral, konvulsiya, desrement stadiyasi. Inkubatsion davrdan keyin grippsimon belgilar paydo bo'ladi, yengil tana haroratining ko'tarilishi kuzatiladi. Aksirish, quruq yo'tal boshlanadi, bu davr 2 hafta davom etadi, o'ta yuqish darajasi yuqori bo'ladi. Birinchi 1-2 hafta ichida engil sovuq, yo'tal, burun burunlari, zaiflik va kamdan-kam hollarda isitma belgilari paydo bo'ladi. Paroksizmal, spazmodik yo'tal titroqlari odatda chuqur shovqinli nafas bilan tugaydi. Ko'p yo'tal xurujlari juda og'riqli bo'lishi mumkin va ko'plab bemorlar uchun ular kechasi tez-tez uchraydi. Ikkinchi stadiyada yo'tal hurujlari boshlanadi, harakterli ko'rinishi til tashqariga chiqishi kuzatiladi. yo'tal natijasida tiniq shilliq ajrab chiqadi va qayt qilishi mumkin. Konvulsiya davri 2 haftadan 6 haftagacha davom etadi. Oxirgi davrda (stadium decrementi) yo'tal hurujlari asta sekin kamaya boradi, 3 haftadan 6 haftagacha davom etadi. Antibiotiklar berilmasa 10 oygacha davom etishi mumkin, shu sababli 100 kun yo'tal deb nomlangan. 6 oydan kichik ko'krak yoshidagi bolalarda yo'tal hurujlari apnoe bilan kuzatiladi, katta yoshdagi odamlarda faqat quruq yo'tal kuzatiladi – bu kasallikning atipik kechishidir. Ko'kyo'tal o'pka shamollashiga, o'rta quloq yallig'lanishiga va ikkilamchi infeksiyalarga sabab bo'ladi. Kuchli yo'tal chov hamda kindik churrallarini keltirib chiqaradi.

Ko'kyo'tal uchun xarakterli alomatlar:

- 1.Ko'krak qafasida og'riq
- 2.Uzoq davom etadigan yo'tal
- 3.Balg'am
- 4.Tumov
- 5.Isitma
- 6.Yuzning ko'karishi

7.Qusish

8.Xirildoq ovoz

Diagnostika

1.O'pka rentgeni

2.Pulmonologiya

3.Balg'amdan bakterriologik bakposev

4.Umumiy qon tekshiruv

Kasallikning kechki bosqichida pulmonolog maslahati ham tavsiya etiladi.

Ko'kyo'talni davolash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1.antibiotiklar;

2.yo'talga qarshi gamma-globulin;

3.antigistamin preparatlar;

4.sedativ preparatlar;

5.spazmolitiklar;

6.neyroleptiklar;

7.yo'talga qarshi va balg'am ko'chiruvchi preparatlar;

8.ingalyatsiyalar;

9.fizioterapevtik muolajalar;

10.o'pkani sun'iy ventilyatsiya qilish (asoratli kechganda).

Gorchichnik va bankalardan foydalanish tavsiya etilmaydi, chunki ular yo'talni kuchaytirishi mumkin.

Bolalarda ko'kyo'talni davolash kattalardagiga o'xshaydi. To'shak rejimiga rioya qilish va bolaga stress ta'sirini minimallashtirish tavsiya etiladi.

Ko'kyo'talni o'z vaqtida davolamaslik jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin, masalan:

1.pnevmoniya;

2.bronxit;

3.plevrit;

4.o'pka emfizemasi;

5.pnevmotoraks;

6.yiringli otit;

7.qorin devori mushaklarining yirtilishi;

8.insult;

9.to'g'ri ichakning tushib qolishi;

10.gemorroy.

Keksalar va yangi tug'ilgan chaqaloqlarda o'limga olib kelishi mumkin.

Ko'kyo'tal bo'yicha xavf guruhiga quyidagilar kiradi:

1.chaqaloqlar va 1 yoshgacha bo'lgan bolalar;

2.keksalar;

- 3.davolash-profilaktika muassasalari xodimlari;
- 4.bolalar maktabgacha tarbiya muassasalari va maktablari xodimlari.

Ko'kyo'talning oldini olish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

- 1.emlash o'tkazishi;
- 2.muntazam ravishda nafas mashqlarini bajarish;
- 3.o'ta sovqotishdan saqlanish;
- 4.chekishdan voz kechmoq

Xulosa. Ko'kyo'tal kasalligining tarqalishini oldini olishda vaksinatsiya, sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish va tibbiy xodimlarning malakasini oshirish kabi kompleks yondashuvlar muhim rol o'ynaydi. Bu yo'nalishda amalga oshirilgan profilaktik tadbirlar samarali bo'lib, kasallikning tarqalishini sezilarli darajada kamaytirishga imkon yaratmoqda. Biroq, ushbu choralar yanada takomillashtirilishi va kengaytirilishi zarur. Ko'kyo'tal kasalligining tarqalishini oldini olish uchun samarali profilaktika choralarini amalga oshirish juda muhimdir. Ayniqsa bolalar va homilador ayollarni vaksinalashning doimiy monitoringi, sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish va kasallik haqida aholining xabardorligini oshirish kasallikning tarqalishini kamaytirishdagi asosiy vositalardir. Emlash dasturlari va tibbiy xizmatlarning sifatini yaxshilash orqali ko'kyo'talning oldini olish va kasallikning tarqalishini to'xtatish mumkin. Ushbu tadqiqot natijalari ko'kyo'tal kasalligining profilaktikasi va davolashda amalga oshirilgan davlat dasturlari samarali ekanligini ko'rsatdi, lekin bu boradagi ishlarni yanada kengaytirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish zarurati mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.<https://med24.uz/uz/bolezn/koklyush> Ko'k yo'tal kasallik belgilari diagnostika va davolash
2. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. <http://gramota.ru/slovari> – справочно-информационный интернет-портал
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Wayback_Machine
5. <https://www.infektionsschutz.de/Коклюш>